CHILDREN EVACUATED TO SURKHANDARYA REGION DURING THE SECOND WORLD WAR

Yangiboyeva Dilnoza O'ktamovna

Associate Professor Termez State University Uzbekistan

yangibaeva11078@mail.ru,

ABSTRACT: In this article, the author presents information about children who were transferred to the Surkhandarya region during the Second World War and their social protection based on archival documents and relevant literature.

Key words: World War II, Victory Park, evacuation, orphanage.

ДЕТИ, ЭВАКУИРОВАННЫЕ В СУРХАНДАРЬИНСКУЮ ОБЛАСТЬ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

АННОТАЦИЯ: В данной статье автор представляет информацию о детях, которые были переведены в Сурхандарьинскую область в годы Второй мировой войны и их социальной защите на основе архивных документов и соответствующей литературы.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Парк Победы, эвакуация, детский дом.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SURXONDARYO VILOYATIGA EVAKUASIYA QILINGAN BOLALAR

ANNOTASIYA: Mazkur maqolada muallif Ikkinchi jahon urushi yillarida Surxondaryo viloyatiga ko'chirib keltirilgan bolalar va ularning ijtimoiy himoyasi borasida arxiv hujjatlari va tegishli adabiyotlar asosida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, "G'alaba bog'i", evakuasiya, bolalar uyi.

Kirish (Introduction)

Keyingi yillarda ilgari yopiq bo'lgan arxiv hujjatlarini, ilmiy jamoatchilik uchun ma'lum bo'lmagan materiallarni yaratish uchun imkoniyat yaratildi. Ilmiy izlanishlar natijasida xalqimizning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki haqida, qahramon ota-bobolarimiz haqida juda muhim yangi ma'lumotlarga ega bo'ldik [1].

Urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil

qilgan va ularning 1,5 million nafari urushda ishtirok etgan, deb hisoblanardi[2]. Ilmiy izlanishlar natijasiga ko'ra, O'zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlandi. Demak, har uch nafar o'zbekistonlikdan bittasi qo'liga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan[3]. Ularning sharafiga mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning g'oya va tashabbuslari asosida Toshkent shahrida "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi bunyod etildi. 14 gektarda barpo etilgan G'alaba bog'i 2020 yil 9 may kuni Prezident Shavkat Mirziyov boshchiligida keng jamoatchilik ishtirokida tantanali ravishda ochildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Urushning dastlab kunlaridanoq O'zbekiston xalq xo'jaligi maxsus rejimga o'tkazildi va front ortidagilar kechayu kunduz front uchun mehnat qildi. SSSR XKS ning 1941 yil 5 iyuldagi «Aholini urush vaqtida evakuasiya qilish tartibi to'g'risida» gi 1825-818 ss-sonli maxfiy qaroriga binoan tinch aholi, jumladan, ko'plab ayollar, bolalar va keksalar urush o'chog'iga yaqin joylardan sharqqa evakuasiya qilina boshladi. Shu munosabat bilan 1941 yil 3 dekabrda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining «Evakuasiya qilingan sovet fuqarolarini qabul qilish va joylashtirish bo'yicha» maxsus qarori qabul qilindi[4]. Qarorga binoan barcha oblastlarda evakuasiya qilingan aholini qabul qilib olish komitetlari tuzila boshlandi.

O'zbek xalqi o'z uy-joylaridan ajralgan va ko'chirilgan odamlarga yordam va mehr-oqibat ko'rsatdi. Ko'plab millatlarning genofondini saqlashda bebaho hissa qo'shgan xalqimiz, yangi aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, urush o'chog'iga aylangan o'lkalardan 1 million 500 ming kishini, jumladan, 250 mingdan ziyod bolani qabul qilgan.

1941 yil oktyabrdan 1942 yilning mart oyiga qadar Surxondaryo viloyatiga 719 oila yoki 1862 kishi evakuasiya qilindi. Evakuasiya qilingan aholining 480 nafari erkak, 1059 nafari ayol, 323 nafari bolalar edi[5]. Ko'chirib keltirilgan va frontga ketganlarning bolalari har kuni tashkil etilgan oshxonalardan bepul ovqat olishardi. Bemor va zaiflashib qolgan bolalarga tibbiy yordam ko'rsatilardi.

Yuzlab o'zbek oilalari ko'chirib keltirilgan, urush tufayli ota-onalaridan ajralgan

bolalarni o’z tarbiyalariga oldilar. Ayniqsa, keltirilgan bolalarga jamoatchilikning yordam ko’rsatishidan iborat vatanparvarlik harakati 1942 yil 2 yanvarda Toshkentda shahar xotin-qizlarining yig’ilishi bo’lib o’tganidan keyin respublikada keng quloch yoydi, bu yig’ilish yurtimiz xotin-qizlarini ota-onasiz bolalarga onalari o’rnida onalik qilishga chaqirgan edi[2]. Toshkent murojaatidan ruhlangan Surxon vohasi mehnatkashlari ham ota-onasiz qolgan bolalarga astoydil g’amxo’rlik ko’rsata boshladi.

Viloyat mehnatkashlari ota-onasiz qolgan bolalarga yordam sifatida 18800 so’m to’pladilar va ota-onasiz qolgan bolalar fondiga topshirdilar[5].

1943 yil 1 iyul kunigacha Surxondaryo viloyatining 7 ta tumaniga jami 3377 kishi evakuasiya qilingan bo’lib, shulardan 930 nafarini 1 yoshdan 8 yoshgacha bolalar tashkil qilgan. Jumladan, Boysun tumaniga 14 nafar, Termiz shahriga 89 nafar, Sho’rchi tumaniga 285 nafar, Denov tumaniga 260 nafar, Jarqo’rg’on tumaniga 208 nafar, Sariosiyo tumaniga 63 nafar 8 yoshgacha bo’lgan bolalar ko’chirib keltirilgan[6].

Urush yillarida Surxondaryo viloyatining Denov, Sho’rchi, Surxon, Termiz, Sherobod, Jarqo’rg’on kabi shahar va tumanlarida bir qator bolalar uylari yangidan tashkil etildi. Urush yillarida ota-onasidan ajralgan, qarovsiz qolgan bolalarning son-sanog’i yo’q edi. Har kuni, har haftada shahar va qishloqlar bo’ylab, tuman ijroiya qo’mitasining maxsus vakillari qarovsiz qolgan yetimlarni to’plab, bolalar uyiga topshirar edilar. Bundan tashqari, jang borayotgan urushning old o’choqlaridan ko’chirib keltirilgan bolalarning aksariyati ota-onasidan ajralib, qarovsiz qolgan. Ular rus, ukrain, belorus, eston, latish, yahudiy, tatar, boshqird va boshqa millatga mansub bo’lib, o’zbek oilalarida, bolalar uylarida, maxsus bolalar bog’chalarida tarbiyalandilar. Surxondaryoda 1945 yil aprel holatiga ko’ra 16 ta bolalar uyi mavjud bo’lib, ularda 3600 nafar bolalar tarbiyalangan[7].

O’sha yillarda bolalar uyi har bir bolaga 500 gramm non, 2 mahal issiq ovqat, shirin choy, har xil murabbolar bergan[8].

Bolalar uyida tez-tez mas’ullar tomonidan nazorat amalga oshirilgan. Masalan,

1942 yil 9 maydagi Surxondaryo viloyat ijroiya qo'mitasining farmoniga binoan Boysun bolalar uyida tarbiyalanuvchilarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, ularning sog'lig'i, taomlanishi, ta'lim olishi nazoratdan o'tkazilgan. Natijada urush bo'layotgan bir vaqtda tarbiyalanuvchilarga yetarli darajada ahamiyat berilmagani, qo'pollik bilan muomala qilinganligi tufayli 24 nafar bola qochib ketganligi aniqlangan va chora sifatida direktor Qizlarsuluv Rustamova hamda yetakchi Azimovalar ishdan olingan [9].

Xulosa qilganda, xalqimizning bag'rikengligi, saxovatliligi va bolajon xalq ekanligi ikkinchi jahon urushi yillarida yana bir bor sinovdan o'tdi. Ana shu og'ir sinovli yillarda voha mehnatkashlari ko'chirib keltirilgan aholiga har tomonlama yordam berib, ular bilan dasturxonidagi eng oxirgi nonini ham baham ko'rdi.

Adabiyotlar (Reference)

1. Ўзбекистон Иккинчи жаҳон уруши даврида. Китоб-альбом. –Тошкент: "O'zbekiston", 2021.
2. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб. –Тошкент: "O'zbekiston', 2019. –Б. 60. 22-23.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning buyuk g'alabaning 75 yilligi hamda xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
4. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 3-ish, 30-varaq.
5. Турсунов С., Қобилов Э. ва бошқалар. Сурхондарё тарихи. –Тошкент, 2004. –Б. 328. 329
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi: 45-jamg'arma, 1-ro'yxat, 118-yig'ma jild, 21-varaq.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi: 45-jamg'arma, 1-ro'yxat, 191-yig'ma jild, 59-varaq.
8. Тоҳир Усмон. Меҳрибонлик уйимиз. –Тошкент, 1998. –Б. 55.
9. Surxondaryo viloyat davlat arxivi: 45-jamg'arma, 1-ro'yxat, 58-yig'ma jild, 40^a-40^b varaqlar.